

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI



ORIENTAL
UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
YO'NALISHLARDA
YOSH TADQIQOTCHILARNING O'RNI**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

(2026-yil 10-fevral)



Toshkent – 2026

TAHRIR HAY’ATI

1. **M.A.NASIROVA** – filologiya fanlari nomzodi, professor (mas’ul muharrir).
2. **T.M.ISAQULOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
3. **Sh.G‘.KARIMOVA** – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
4. **J.B.MAMADIYOROV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent.
5. **U.B.MAMANAZAROV** – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
6. **Y.B.MAXMUDOV** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislariga dalil, raqam va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’uldir.

79.	Mamadiyurov Jamol Baxodirovich, Toxirova Saida Muzaffar qizi	Raqamli transformatsiya sharoitida interfaol darslarni tashkil etish metodikasi.....	357
80.	Mamadiyurov Jamol Baxodirovich, Rahmonova Gulinavro‘za Umidjon qizi	Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilar tarbiyasini shakllantirish metodikasi.....	362
81.	Jamol MAMADIYOROV, Humora SULTONOVA	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni.....	370
82.	Jamol MAMADIYOROV, Dilafuz G‘ULOMOVA	Boshlang‘ich ta‘limda raqamli texnologiyalar asosida o‘quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish metodikasi.....	377
83.	Jamol MAMADIYOROV, Xolida Xayitboyeva	Boshlang‘ich sinflarda sun‘iy intellekt elementlari asosida o‘qitishni tashkil etish metodikasi.....	384
84.	Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Omadjonova Gulshoda Aqljon qizi	Bola shaxsini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning psixologik roli.....	391
85.	Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida	Kasbiy pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy, metodologik va amaliy asoslari.....	394
86.	Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Badriddinova Hilola Akromjon qizi	Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko‘rinishlari.....	397
87.	Abdumannatov Abdumajid, Aliyurova Mehribon	Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayorlashning pedagogik shart- sharoitlari.....	402
88.	Abdurazzoqov O‘ktam Abduqayumovich, Muhammadiyah Lobar Baxodir qizi	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviy tarbiyasida oila muhitining o‘rni.....	406
89.	Abdurazzoqov O‘ktam Abduqayumovich, Yuldashova Ominaxon Nurmuratovna	O‘quvchilarni ijodiy fikirlashga o‘rgatishda didaktik o‘yinlarning imkoniyatlari.....	410

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY TARBIYASIDA OILA MUHITINING O‘RNI

Abdurazzoqov O‘ktam Abduqayumovich,

*Oriental universiteti uzluksiz ta’lim pedagogikasi
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Muhammadiyeva Lobar Baxodir qizi,

*Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi kunduzgi
ta’lim shakli 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy tarbiyasini shakllantirish jarayonida oila muhitining pedagogik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda oila sharoitida shakllanadigan axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari hamda ota-onalarning tarbiyaviy mas’uliyati bolaning ma’naviy kamolotiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, oila va maktab hamkorligining uzviyligi boshlang‘ich ta’lim bosqichida ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, ma’naviy tarbiya, oila muhiti, oilaviy tarbiya, ota-ona mas’uliyati, axloqiy qadriyatlar, maktab–oilam hamkorligi.*

Yosh avlodni tarbiyalash - murakkab va ko‘p qirrali jarayon. Darhaqiqat, yoshlarga har tomonlama - aqlan va jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma’naviy pok bo‘lishga yordam berish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Inson va uning baxt-saodati, qadriyatlariga g‘amxo‘rlik qilishning ahamiyatini kech bo‘lsa ham tushundik. Shu orqali yo‘qolib borayotgan milliy urf-odatlar va qadriyatlarimiz yana o‘z o‘rnini topdi. Bu albatta, kelgusi avlod uchun katta baxtdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy tarbiyasida oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari keng va rang-barangdir. Oila orqali bolada milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar va ma’naviy merosga hurmat hissi shakllanadi. Ota-onaning milliy bayramlar, marosimlar, oilaviy an’analarni hurmat bilan o‘tkazishi bolada milliy o‘zlikni anglash jarayonini kuchaytiradi. Bu holat esa boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ma’naviy dunyosida muhim o‘rin egallaydi.

Yusuf Xos Xojib “Oiladagi” eng ulug‘ fazilat ezgu va go‘zal hulqdir deydi. Ikkinchisi rostlik, uchinchisi hayot hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa kishi baxtiyor bo‘ladi, qut iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kishining hulqi go‘zal bo‘lsa uni barcha xalq sevadi.”

“Xulqi yuz bo‘lgan kishiga to‘rdan joy tegadi” - degan edi. Oilada bola tarbiyasi xususida gapirilganda yuqorida eslatib o‘tganimizdek, uning asosiy manbasi muhabbat, ishonch, o‘zaro hurmatni tashkil qiladi. Hech kimga sir emaski oilaning ko‘rki ham

totuvligi ham bekamu ko‘stligi ham farzandlarning qobilu mo‘minligi ham asosan ana shu allomamizning onalik mahoratiga, ayollik nozik qalbiga, yuksak hayosiga, qaynoq mehru muhabbatiga bog‘liqdir. Oilada ota-onaning shu oiladagi kattalarni yurish turishidan tartib so‘z madaniyati, kiyinishi, kishilar bilan muomalasi, hatto atrof-muhitga munosabati va shu singari oddiy bo‘lib ko‘rinadigan holatlar ham bola tarbiyasiga katta ta‘sir qiladi. Hozirda yoshlarni yetuk kishilar qilib tarbiyalash, ularga e‘tibor berish keng tus oldi. Chunki jamiyatimizning kelgusi shu yoshlar qo‘lidir. Yoshlarni axloqan pok, jismonan sog‘lom, yetuk kishilar qilib tarbiyalash oilaning oldiga qo‘yilayotgan eng muhim talablardan biridir. Buning uchun har bir ota-ona o‘z farzandining ezgu maqsadga intiluvchan, kattalarni e‘zozlaydigan kichiklarga muruvvatli, o‘qish va ishda matonatli qat‘iy, tashabuskor, uyushqoq, qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan kishilar qilib tarbiyalashlari kerak. Ayniqsa oilada katta yoshli bolalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish juda muhim ahamiyatga ega. Bola ulg‘aygan sari kattalar buyrug‘ini yoqtirmaydigan bo‘lib boradi.

Oila jamiyatning ajralmas va zarur qismidir. Inson aynan oila orqali dunyoga keladi va oilada tarbiyalanadi. Shu sababli, oila ikki muhim ijtimoiy vazifani bajaradi: farzandlarni dunyoga keltirish va ularga to‘g‘ri tarbiya berish. Oilada katta yoki kichik narsa degan tushuncha yo‘q. Xatto eng oddiy oilaviy munosabatlar ham bolaga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Oilada hukm suruvchi ijtimoiy-psixologik holat, tarbiyaviy an‘analar, ota-onalarning tarbiyaga bo‘lgan munosabati, oilaviy qadriyatlar tizimi, shuningdek, oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar majmui tushuniladi. Ushbu omillar bolaning shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, uning ma‘naviy qiyofasini belgilaydi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bola uchun oila nafaqat yashash muhiti, balki axloqiy namuna, xulq-atvor andozasi vazifasini ham bajaradi. Oila muhitining ma‘naviy tarbiyadagi mohiyati, eng avvalo, ota-onaning shaxsiy namunasi orqali namoyon bo‘ladi. Ota-ona tomonidan namoyish etiladigan halollik, adolat, mehnatsevarlik, mas‘uliyat, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi fazilatlar bola ongida ijobiy axloqiy me‘yorlar sifatida shakllanadi. Aksincha, oilada befarqlik, qo‘pollik, yolg‘onchilik yoki zo‘ravonlik holatlarining mavjudligi bolaning ma‘naviy kamolotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi⁶⁰. Shu bois, oila muhitining sog‘lomligi boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ma‘naviy tarbiyasida muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviy tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shaxs shakllanishining eng muhim va nozik davri bo‘lgan boshlang‘ich ta‘lim bosqichida bolada axloqiy qarashlar, ma‘naviy

⁶⁰ Ochilov M “Muallim qalb me‘mori”. O‘qituvchi», Toshkent 2003 y

qadriyatlar, xulq-atvor me‘yorlari va ijtimoiy munosabatlarga oid dastlabki tasavvurlar tarkib topadi. Mazkur jarayonda oila muhiti alohida pedagogik ahamiyat kasb etib, u bolaning ma‘naviy dunyosini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Oila bolaning hayotidagi birinchi tarbiya maskani bo‘lib, unda shaxsning axloqiy, ma‘naviy va ruhiy asoslari qo‘yiladi.

Ma‘naviy tarbiya tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng qamrovli kategoriyalardan biri bo‘lib, u shaxsda jamiyat tomonidan e‘tirof etilgan axloqiy me‘yorlar, ma‘naviy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma‘naviy tarbiyasida bu jarayon, avvalo, bolaning o‘ziga, oilasiga, atrofdagilarga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Aynan shu munosabatlarning shakllanishida oila muhiti hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, oila muhiti bolaning ma‘naviy tarbiyasida tabiiy va uzluksiz ta‘sirga ega bo‘lgan tarbiyaviy makon hisoblanadi. Chunki bola kundalik hayotida eng ko‘p vaqtini oilada o‘tkazadi, ota-onaning munosabati, gap-so‘zi, xatti-harakati va qarashlarini bevosita kuzatadi hamda o‘zlashtiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari taqlidchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, ular kattalarning xulq-atvorini ongli yoki ongsiz ravishda o‘zlashtiradilar. Shu sababli oiladagi har bir pedagogik holat bolaning ma‘naviy rivojiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, oila muhitida bolaning ijtimoiy munosabatlari shakllana boshlaydi. Oila a‘zolari bilan bo‘lgan muloqot jarayonida bola muloqot madaniyati, hurmat, muomala, o‘z fikrini ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydi. Bu ko‘nikmalar keyinchalik maktab jamoasida, sinfda va kengroq ijtimoiy muhitda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, oila muhiti boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijtimoiylashuv jarayonida asosiy tayanch vazifasini bajaradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma‘naviy tarbiyasida oila va maktab hamkorligi ham muhim pedagogik omil hisoblanadi. Biroq bu hamkorlikning poydevori aynan oilada qo‘yiladi. Agar oilada ma‘naviy tarbiya tizimli va ongli ravishda olib borilsa, maktabdagi tarbiyaviy ta‘sir bilan uyg‘unlashib, yanada yuqori natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, oila muhiti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma‘naviy tarbiyalashda asosiy va yetakchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, rostgo‘ylik, samimiylilik, sadoqat va shirinsuhanlik bolalarning kamolotida beqiyos ahamiyatga ega. Bu borada axloq va odobga oid hadislar ham shunday ta‘kidlaydi: gapning yomoni - yolg‘onchilikdir. Yolg‘onni hazil bilan ham, jiddiy ham aytib

bo‘lmaydi. Otaning o‘z bolalariga bergan va‘dasi bajarilishi shart; uni bajarmaslik noto‘g‘ri xatti-harakatdir. Rostgo‘ylik ezgulikka yetaklaydi, yovuzlik esa jahon azobiga sabab bo‘ladi. Rostgo‘y odamga yaxshi baho, yomon odamga esa yomon baho beriladi⁶¹.

Xulosa qilib aytganda bolalarning kelajakda qanday inson bo‘lib yetishishi ko‘proq ota-onaga va oilaga, shuningdek, undagi muhitga bog‘liqdir. Demak, farzandlar ota-onaning davomchilari hisoblanadi. Yusuf Xos Xojib “oiladagi eng ulug‘ fazilat ezgu va go‘zal hulqdir” deydi. Ikkinchisi - rostlik, uchinchisi - hayotdir. Shu uch fazilat birlashganda, kishi baxtiyor bo‘ladi, uning qut-iqbolini hurmat qiladi. Chunki kishining hulqi go‘zal bo‘lsa, uni barcha xalq sevadi. “Xulqi yuz bo‘lgan kishiga tordanoq joy tegadi” degan maqol ham bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov M “Muallim qalb me‘mori”. O‘qituvchi», Toshkent 2003 y
2. Azlarov Yu.T. Bolalarni sevish san‘ati. Toshkent. 1992 y.
3. Usmonova N.M., Yuldoshev T.A. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tarbiyalashda ma‘naviy-axloqiy xususiyatlarni shakllantirish”. 2022
4. Xudoyberdiyeva N. “Oila muhitining bolaning shaxsiy kamolotiga ta‘siri”. Xalq ta‘limi jurnali, 2020, №3.

⁶¹ Azlarov Yu.T. Bolalarni sevish san‘ati. Toshkent. 1992 y.

O‘QUVCHILARNI IJODIY FIKIRLASHGA O‘RGATISHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING IMKONIYATLARI.

Abdurazzoqov O‘ktam Abduqayumovich,

*Oriental universiteti uzluksiz ta’lim pedagogikasi
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Yuldashova Ominaxon Nurmuratovna,

*Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi kunduzgi
ta’lim shakli 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, didaktik o‘yinlarning mazmun-mohiyati, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda o‘quvchilarning mustaqil, erkin va ijodiy fikrlashini shakllantirishdagi ahamiyati, didaktik o‘yinlar orqali muammoli vaziyatlar yondashuvni amalga oshirish hamda o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yinlar, ijodiy fikrlash, ta’lim jarayoni, boshlang‘ich ta’lim, muammoli vaziyat, rolli o‘yinlar, mustaqil fikrlash, pedagogik shart-sharoitlar.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida faqat tayyor bilimlarni egallash emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi, yangicha yechimlar topishi va o‘z g‘oyalarini asoslab bera olishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlar ta’lim mazmunini qiziqarli, mazmunli va faol shaklda o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Ular o‘quvchilarni faollikka chorlaydi, dars jarayonida bevosita ishtirok etishga undaydi hamda bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Didaktik o‘yinlarning asosiy afzalligi shundaki, ular orqali o‘quvchilar erkin fikrlashga, o‘z qarashlarini ifodalashga va ijodiy yondashuv asosida vazifalarni bajarishga o‘rganadilar.

Ijodiy fikrlash tushunchasi pedagogik va psixologik adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, u shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, noodatiy yechimlar topish va mavjud bilimlarni yangicha shaklda qo‘llash qobiliyati sifatida talqin etiladi[1]. O‘quvchilarda bunday fikrlashni shakllantirish uchun ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, mustaqil izlanishga undovchi topshiriqlardan foydalanish hamda

interfaol metodlarni qo‘llash zarur. Didaktik o‘yinlar aynan mana shu talablarni to‘liq qondira oladigan samarali usullardan biridir.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va psixologik holatiga mos holda tanlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sodda, qiziqarli va harakatli o‘yinlar mos bo‘lsa, yuqori sinf o‘quvchilari uchun mantiqiy, muammoli va rolli o‘yinlar samaraliroq hisoblanadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning tafakkur jarayonini faollashtiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi va ijodiy fikrlash malakalarini rivojlantiradi.

Didaktik o‘yinlarning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati shundaki, ular o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. O‘yin jarayonida o‘quvchi o‘zini erkin his qiladi, xatolardan qo‘rqmaydi va o‘z fikrini ochiq ifodalashga intiladi. Bu esa ijodiy fikrlash uchun qulay psixologik muhit yaratadi. O‘yin davomida yuzaga keladigan raqobat, hamkorlik va muloqot jarayonlari o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini ham oshiradi.

Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Masalan, muammoli vaziyatlarga asoslangan o‘yinlar o‘quvchilarni berilgan shartni tahlil qilishga, muammoning sabab va oqibatlarini aniqlashga hamda optimal yechim topishga undaydi. Bunday jarayonlarda o‘quvchi nafaqat bilimini, balki ijodiy salohiyatini ham namoyon etadi[2].

Rolli didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Ushbu o‘yinlarda o‘quvchilar ma‘lum bir rolni bajarish orqali vaziyatga ijodiy yondashadilar, o‘z tasavvurlarini kengaytiradilar va muammoni turli nuqtai nazardan baholashga o‘rganadilar. Rolli o‘yinlar muloqot madaniyatini rivojlantiradi, nutq faoliyatini faollashtiradi va o‘quvchilarning o‘z fikrini asoslab berish ko‘nikmasini mustahkamlaydi.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. O‘yin jarayonida berilgan topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchi mustaqil izlanadi, mavjud bilimlarini qayta ko‘rib chiqadi va yangi g‘oyalar ilgari suradi. Bu esa ijodiy fikrlashning muhim komponentlaridan biri bo‘lgan mustaqillikni shakllantiradi.

Ta‘lim jarayonida didaktik o‘yinlardan samarali foydalanish o‘qituvchidan puxta tayyorgarlikni talab etadi. O‘qituvchi o‘yinning maqsadini, mazmunini va natijasini aniq belgilashi, o‘yin jarayonini to‘g‘ri tashkil etishi va o‘quvchilarning faolligini doimiy rag‘batlantirib borishi lozim. Shuningdek, o‘yin yakunida o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish va baholash ham muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda fanlararo integratsiya ham muhim rol o‘ynaydi. Turli fanlar mazmunini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilgan o‘yinlar o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, ularni kompleks fikrlashga o‘rgatadi va real hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Shuningdek, didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mas’uliyat, tashabbuskorlik, jamoada ishlash, o‘z fikrini himoya qilish kabi fazilatlar o‘yin jarayonida shakllanadi. Bu sifatlar esa ijodiy fikrlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchining barkamol shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

Didaktik o‘yinlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Har bir o‘quvchi o‘z qobiliyati va imkoniyatiga mos holda o‘yinda ishtirok etadi, bu esa ijodiy salohiyatning to‘liq namoyon bo‘lishiga yordam beradi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘z kuchiga ishonch hosil qiladi va yangicha fikrlashga jur‘at topadi[4].

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular ta’lim jarayonini samarali, qiziqarli va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Didaktik o‘yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi hamda ta’lim sifati oshishiga olib keladi.

Zamonaviy dars faqat o‘qitishning metod va formalari bilan cheklanib qolmay, balki ta’lim-tarbiya, shakllantirish maqsadlarini amalga oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatida birgalikdagi o‘zaro bog‘liqligini ro‘yobga chiqarishni, ijodiy pedagogik tafakkur, pedagogik mahoratni talab qiladi. O‘qituvchining o‘qitish vositalari uning ijodkorligiga, ko‘p qirrali bilimiga, bolalarni sevish faoliyatiga asoslanadi. Dars berishda o‘qituvchining muvaffaqiyati uning nazariy va kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq[3].

O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish ish tajribasi har bir o‘qituvchi uchun o‘rnak bo‘lishi tabiiydir. Chunki uning asosiy maqsadi milliy va ijodiy qobiliyat asosida komil insonni voyaga yetkazishga qaratilgan. O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish dastlab o‘qish mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi. Ijodiy qobiliyatni shakllantirishning vazifasi va mazmuni boshlang‘ich ta’lim bosqichida milliy axloqiy tarbiya berishning asosiy tamoyillari va pedagogik shart - sharoitlariga rioya qilish asosida bajariladi.

Shuni aytish kerakki kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishda xalqimizning ma’naviy me’rosi uning asosiy negizini tashkil etadi.

Shuning uchun ham uchinchi sinfda «Sohibqiron Temur bobo» haqida ma’lumot, Amir Temurning «Kuch adolatda» hikmatli so‘zining mohiyatini o‘rganish uchun ikki soat ajratilgan. Lekin darslikda berilgan Amir Temur haqidagi ma’lumotlar va uning «Kuch adolatda» o‘giti uchun ajratilgan materiallar nihoyatda qisqa. Biz shuning uchun ham uning mazmunini yanada boyitish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga metodik yordam berish maqsadida «Kuch adolatda» mavzusining mazmunini quyidagicha ishlab chiqdik. Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 102-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabning 3 “A”-sinfida sinf o‘qituvchisi Jurayeva Ra’no Soatqulovnaning dars mashg‘ulotini o‘tishda Amir Temurning rasm-portreti, Amir Temur kitoblari, Amir Temur haqida chop etilgan adabiyotlar hamda Amir Temur haykali, Davlat tarix muzeyi haqida hikoya qiluvchi rasmlar ko‘rgazmasini tashkil etadi. O‘qituvchi bolalarga «Rasm - portretda kim ifodalangan?» degan savol bilan murojaat etadi. Shundan keyin asta - sekinlik bilan darsni boshlaydi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida amalga oshiriladigan ishlar o‘quvchilarda bilimlarini egallash bilan birga, ularda Vatanga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Ijodiy qobiliyat shaxs me‘yorlarini shakllantiradi. Umuminsoniy qadriyatlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni kamol toptiradi. Turli millat vakillariga va o‘zgacha fikrlovchilarga hurmat va xayrixolik madaniyatini rivojlantiradi. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda badiiy adabiyotning o‘rni va ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, boshlang‘ich ta’lim bosqichining darslik va o‘quv qo‘llanmalariga kiritilgan badiiy adabiyot namunalari o‘quvchilarni ijodiy qobiliyat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Lekin, shuni aytish kerakki badiiy adabiyot boshlang‘ich ta’lim mazmunidan chuqur o‘rin egallagan bo‘lsa ham u pedagogik jihatdan chuqur o‘rganilmagan. Ammo bolalar adabiyoti ommabop tarbiya vositasi sifatida shaxs faoliyatida siyosiy, ma’naviy-axloqiy, huquqiy, ekologik, Boshlang‘ich sinf, iqtisodiy mazmunga ega bo‘lishi diqqatga sazavordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva G.X. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Avliyoqulov N.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
3. Bekmurodov M.B. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
4. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A. Ta’limda interfaol metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.